



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA KIRITILGAN XORIJIY INVESTITSIYALARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abduraxmonov Azizbek Akram o'g'li

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
azizabdurahmonov65@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10082343>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-November 2023 yil
Ma'qullandi: 04-November 2023 yil
Nashr qilindi: 08-November 2023 yil

KEY WORDS

Yangi O'zbekiston, innovatsiya, xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya, byudjet, sanoat korxonasi, tendensiya, investor.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, Yangi O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari talqin qilingan. Bunda asosiy e'tibor innovatsion iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy etishda xorijiy investitsiyalarning ishtirokini ta'minlashni oshirish kabi ustuvor vazifalar keltirib o'tilgan.

Investitsiya faoliyati har qanday tizimda ham mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganlik darajasini ifoda etadi. Iqtisodiyotni investitsiyalashga jalb etilayotgan mablag'lar, xususan, xorijiy investitsiyalarning salmog'iga qarab ham mamlakatning iqtisodiy qudratiga baho berish mumkin.

Globalashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlar o'rtasida investitsiyaviy hamkorlik qilishning roli ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ulardan samarali foydalanish va ular bilan ishtirogidagi korxonalarni samaraadorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022-yilning 24-26-mart kunlari bo'lib o'tgan "Toshkent xalqaro investitsiya forumi" da Prezident Shavkat Mirziyoyev "Ilgari investorlarni O'zbekiston bozoriga kirishi va erkin faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilgan barcha omillar bartaraf etilib, tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratila boshlanganligini" - aytib o'tgan edi.¹

Respublikamizda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lmish sanoat tarmog'ini barqaror rivojlanishini ta'minlash, ulardagi iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan bog'liq muammolarni kompleks hal etish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yanada yuksaltirish maqsadida hukumatimiz tomonidan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirishda xorijiy investitsiya ishtiroki ko'lami ortib borilayotgani ham bu maqolaning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

¹ Ozbekistob Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-26-martdagi "Toshkent Xalqaro investitsiyalar forumi" dagi nutqidan. www.sputniknews.uz

Hozirda jahonda jadal sur'atlarda kengayib borayotgan xorijiy investitsiya jarayonlariga muvofiq investitsion muhit jozibadorligi va salohiyatini baholash, ularga ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashuvi ta'siri, hududlar o'rtasida vujudga kelayotgan tabiiy-demografik, ma'muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, balanslashgan hududiy investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikka erishishda investitsiyaning ahamiyati katta. Shu sababli mamlakatimizda xorijiy investitsiya sarmoyasi ishtirokidagi sanoat korxonalarini sonini ko'paytirish hamda mahalliy xomashyodan eksportbop mahsulotlar tayyorlashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti muhim omil bo'lmoqda. Bu borada, Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrni ta'kidlab o'tgan edi: "Ma'lumki, mamlakatimizning xorij davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlash va xorijda respublikamizning iqtisodiy, moliyaviy imkoniyatlarini keng targ'ib qilish orqali uning xalqaro nufuzini yanada oshirish, investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish, turizm sohasini yanada rivojlantirish iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarimizdan biri hisoblanadi".²

Bloomberg Billionaires Index ma'lumotlariga ko'ra yer yuzidagi eng boy odam Elon Musk investitsiya kiritish bo'yicha ba'zi maslahatlar bergan edi: "Mendan investitsiya qo'yish borasida ko'p so'rashadi, va men ularga siz ishonadigan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaradigan bir nechta kompaniyalarning aksiyalarini sotib oling yoki investitsiya kiriting, qachonki ularning mahsulotlari va xizmatlari yomonroq tendensiyaga ega deb hisoblasangiz faqat soting deb aytaman."³ Bundan ko'rinib turibdiki, investitsiya bozori ham mahsulot va xizmatlarning real hayotdagi tendensiyalariga qarab turli xil korxonalar va davlatlarning moliya bozorlariga kiritiladi.

Dunyoda jadallik bilan innovatsion iqtisodiyotga o'tish tendensiya jarayonlari ketayotgan bir paytda O'zbekiston hududida ham xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tubdan isloh qilish davr talabiga aylandi. Mamlakatimizda investor, xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar ham iqtisodiy, ham moliyalashtirish manbalari huquqlari yuzasidan ko'maklashish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligini tushunib turibmiz. Investor qachon biror bir davlatga o'z kapitalini qo'yishga ikkilanmaydi? Qachonki tanlangan mamlakatning iqtisodiyotidagi qonunchiligida xorijiy investorga qulayliklar, imkoniyatlar yetarli bo'lsagina investor tanloviga ega bo'ladi. Shu sababli ham Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy investorlar bilan ishlashni tashkil etishning tartibini belgilab berdi. Unga ko'ra:

- investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida sarmoyadorlarni qo'llab-quvvatlash ishchi guruhi tashkil etish;
- ishchi guruh Xorijiy investorlar kengashi huzurida faoliyat yuritib, xorijiy sarmoyadorlarni kompleks va tizimli ravishda qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanish;

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq T.: O'zbekiston, 2016. – B.24.

³ Elon Musk "Investing marketing" www.cnbc.com

- investorni aeroportda kutib olishdan tortib, biznes uchun zarur ruxsatnoma va litsenziyalar berishgacha bo'lgan barcha xizmatlarni “yagona oyna” tamoyili asosida ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar asosan iqtisodiyotning sanoat(30,%) va savdo (28,5%) sohalariga to'g'ri keladi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda rasman band aholining 6%i faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonaning ishlab chiqarishdagi ulushi 15%ni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24%ni tashkil etib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bergan yarim yillik statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 6,9 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi esa 0,1 % ga kamayib, 4,9 % darajasida qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida bir nechta investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

- Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;
- Umumiy quvvati 900 MVt dan kam bo'lmagan navbatdagi ikkita bug'-gaz turbinasini qurish bilan Talimarjon IESni kengaytirish;
- Quvvati 32 MVt bo'lgan ikkita gaz trubina qurilmalarini qurish;
- Texnologik qurilmalarni modernizatsiya qilish va aloqa tizimini kengaytirish;
- Janubiy Qoraqalpog'istonda suvresurslarini boshqarishni yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalari hajmi dollar ekvivalentida 31,2 mln AQSH dollari va bu o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichlariga nisbatan kamayib 0,1 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari:

- Qarshi nasos stantsiyalari kaskadini kapital-qayta tiklash (III faza), Qashqadaryo viloyati;
- Toshkent shahrida yer usti halqa metropolitenini qurish (II bosqich);
- Kuyuv-prokat majmuasini qurish.

Mamlakatimizda bugungi kunda chet el investitsiasi oqimi ko'lami o'sib borish tendesiyasiga ega ekanligi sababli ham Respublikada uning yo'nalishlarini real sektorlar bo'yicha taqsimlanishi bu ilmiy maqolaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2023-yil 1-iyun holatiga)

	<i>Korxonalar soni birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
jami	12807	100

Shu jumladan:		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	500	3,9
sanoat	3161	24,7
qurilish	901	7,0
savdo	4162	32,5
Tashish va saqlash	427	3,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	472	3,7
axborot va aloqa	779	6,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	179	1,4
Boshqa faoliyat turlari	2228	17,4

Bevosita to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 23,8 trln. so'm, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % punktga ko'paygan holda jami ulushi 17,1 % ga teng investitsiyalar o'zlashtirildi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 28,3 trln. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % punktga kamaygan holda jami ulushi 20,4 % investitsiyalar o'zlashtirildi.

Xulosa. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida qulay investitsiya muhiti shakllantirildi, ya'ni qulay investitsiya muhitini shakllantirishda iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlariga erishayotganligini va bozor institutlarining mavjudligi hamda eng avvalo, mustahkam qonunchilik bazasi, rivojlangan bank-kredit va investitsiyalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar tizimlari yaratilganligi sabab bo'lmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati xususiyatlariga doir amalga oshirilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbekistonda sanoat korxonalari investitsiya loyihalarini moliyalash uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga muhim qo'shimcha manba sifatida qaralishi lozim. Xorijiy investitsiyalar mahalliy investitsiyalarni to'ldirishi mumkin, biroq, ularning o'rnini bosolmaydi. Shu jihatlarni inobatga olganda, investitsiyalashning tashqi manbalarini kengaytirish tarmoq korxonalarining investitsiya faoliyatini yuksaltirishda ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bugungi investitsiyalar ertangi kunimizni belgilab beradi. Zero hozirgi jadal va tez sur'atda rivojlanayotgan davlatimizga yetarlicha xorijiy investitsiyalarini jalb qila olgan taqdirimizda, albatta, biz kelajagimizning poydevorini mustahkam qo'ya olgan bo'lamiz. Mamlakatimiz investorlarga qulay investitsiya sharoitini yaratib berish uchun qator qonun va farmonlar imzolamoqda. Bu kabi hujjatlarda asosan xorijiy investorlar uchun imtiyozlar aks ettirilmoqda. Investorlar e'tiborini jalb etishda mamlakatning geografik o'rne, siyosiy ahvoli, iqtisodiy potentsiali kabi muhim omillar birlamchi ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda foiz stavkasi va kutilayotgan o'rtacha foyda me'yori investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar bo'lib hisoblanado. Chunki chet el investorlari uchun bu ko'rsatgichlar katta ahamiyat

kasb etadi zero ularning kapitali yetarli darajada ko'payishi kerak.

Investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylashtirishdir, va shu o'rinda mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxonalarni joyidan qat'iy nazar soliq imtiyozlarini tenglashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alfaro L. Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approache // World Bank Economic Review, Volume 1, Issue4, – Germany, 2016. P. 261 – 276.
2. E.I.Kenjayeov Xorijiy Investitsiyalar. – Namangan., 2014. – 206 b.
3. Садыков А.А. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Т.: Iqtisod-moliya, 2005. – 280 с.
4. Qo'ziyeva N.M. Investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari va ularni takomillashtirish masalalari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. T.: O'qituvchi. 2003. – 311 b.
5. Yo'ldosheva Sh.F. Korxonalarda investitsiyalarni boshqarish. Bozor, pul va kredit. – T.: Moliya. 1998. – 278 b.
6. Dunning, J.H. The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future. – Amsterdam.: Hell, 2001. – 190 p;
7. Karimov D., Mahmudova H., Qodirov S. Yengil sanoatga xorijiy investitsiyalar kiritish. Bozor, pul va kredit. – T., 2000. – 286 b.
8. Mamatov M. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari.– T.: Iqtisodiyot va ta'lim, 2011. – 182 b.
9. Bayraktar N. Foreign Direct Investment and Investment Climate. – Istanbul, 2022. – 192 p;
10. Mozer S.V. Digital Customs. – Moscow.: Publishing. 2019. – 266 p.
11. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 247 b.
12. Xidirov N.G'. Investitsion muhitni shakllantirishda investitsion siyosatning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining konseptual asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari. – T., 2013. 410 b.